# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Fargʻona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abdullaev Ulug'bek Saydanovich*
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR ........ 10-14

*Shukurillayev Yunus Asrorovich*
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI ........ 15-19

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ ........ 20-25

*Xusanov Xabibullo Xakimovich*
O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ........ 26-30

*Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna*
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR ........ 31-38

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT........ 39-42

*Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li*
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI ........ 43-48

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Исламутдинов Вадим*
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 49-54

*Melibaeva Gulxon Nazrullayevna*
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA........ 55-65

*Ульмас Ибрагимов*
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ........ 66-75

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Salomova Hakima Yusupovna*
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI ........ 76-83

*Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom*
YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA........ 84-90

*Djo'raev Anvar Muxamadiyevich*
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI ........ 91-96

*Каримова Гулчехра Самадовна*
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-ЭТИЧЕСКИХ ........ 97-101

*Гайбуллаев Жавлон Шавкатович*
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ ........ 102-105

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 106-110

*Taylyakova Feruzaxon Sultanovna*
OʻZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 111-116

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA ........ 117-120

*Yarashov Sarvar Norqul oʻgʻli*
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TAʻSIRI ........ 121-125

*Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux*
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN’AT FALSAFASI ........ 126-130

*Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин*
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ ........ 131-135

*Kurbanbaeva Ulbosin Jumagʻalievna*
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI ........ 136-139

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Miqumova Dilafruz*
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA’FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE’RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI ........ 140-147

*Xoʻjamqulov Anvar, Togʻayeva Shoxnoza*
TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI ........ 148-159

*Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon*
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS ........ 160-163

*Mamatova Feruza Maxammadovna*
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 164-168

*Burxonova Gulmira Olimjon qizi*
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI ........ 169-172

*Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara*
BOGʻLOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA ........ 173-177

*Musurmonova Barchinoy Hasan qizi*
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI ........ 178-182

*Яркулова Фотима Усмановна*
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ........ 183-186

*Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR ........ 187-190

*Musoeva Hayitgul Urokovna*
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" ........ 191-195

*Yuldasheva Kamola*
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR ........ 196-202

*Matkarimova Malika Oybek qizi*
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS ........ 203-206

Kamola Hatamova
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Uralov Sharof Urazaliyevich*
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ........ 211-216

*Mamatmurodov Farrux*
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 217-222

*Муталипова Лола Фархадовна*
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 223-234

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ . 235-241

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ........ 242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI ........ 247-252

*Namozova Dilorom Tursunovna*
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI ........ 253-261

*Давыдова Руфина Артуровна*
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ ........ 262-266

*Gaziev Baxromjon Valievich*
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI ........ 267-273

*Toshtemirova Mohichehra G‘olibjon qizi*
DIZAYN TA’LIMINING XALQARO TAJRIBASI:
O‘QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI ........................................ 274-279

*Rakhmonova Dilnura Saidovna*
TEXNIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:
AMALIYOT VA TAJRIBA ........................................................................................................ 280-286

*Yakubova Barno Baxtiyorovna*
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH ................................................................ 287-290

*Rixsiboyev Behzod Alisherovich*
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O‘RNI ........ 291-295

*Islamova Moxichexra Bekmurzayevna*
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O‘QITUVCHI STRATEGIYALARI ..... 296-301

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 2 June 2025
**Accepted:** 15 June 2025
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

# THE ROLE OF CULTURAL PLURALISM IN ENSURING SOCIAL STABILITY

**Rikhsiboyev Behzod Alisherovich**
Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute
G-mail: rixsiboyevbehzod67@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes the concept of cultural pluralism, its role in modern society, and its impact on ensuring social stability. Mutual respect, tolerance, and equal opportunities among different cultural groups are considered key criteria for maintaining stability in society.

**Keywords:** cultural pluralism, social stability, tolerance, inclusiveness, intercultural dialogue.

# IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI

**Rixsiboyev Behzod Alisherovich**
Guliston davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi
G-mail: rixsiboyevbehzod67@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada madaniy plyuralizm tushunchasi, uning zamonaviy jamiyatda tutgan oʻrni hamda ijtimoiy barqarorlikka taʼsiri tahlil qilingan. Turli madaniy guruhlar oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, bagʻrikenglik va teng imkoniyatlar taʼminlanishi barqarorlikning muhim mezonlaridan biri sifatida baholanadi.

**Kalit soʻzlar:** madaniy plyuralizm, ijtimoiy barqarorlik, bagʻrikenglik, inklyuzivlik, madaniyatlararo muloqot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N48

**Kirish.** Zamonaviy davrda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida madaniy plyuralizm muhim omillardan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi va xalqaro migratsiya oqimlarining koʻpayishi natijasida jamiyatlar yanada murakkab va koʻp qatlamli ijtimoiy tuzilmalarga ega boʻlmoqda. Bu holat, oʻz navbatida, turli millatlar, konfessiyalar, irqiy va madaniy guruhlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. "Shunday murakkab sharoitda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash uchun jamiyatda mavjud madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda boshqaruv siyosatini yuritish zarurati vujudga keladi"[1, 25 b]

Madaniy plyuralizm tushunchasi jamiyatdagi barcha madaniy guruhlarning teng huquqli ishtirokini, oʻzligini erkin namoyon etishini va ularning manfaatlari davlat siyosatida ifodalanishini bildiradi. Bu yondashuv jamiyatda bagʻrikenglik, inklyuzivlik, ijtimoiy adolat va hurmat tamoyillariga asoslanadi. "Plyuralistik tamoyillar asosida tashkil etilgan ijtimoiy tizimlar zoʻravonlik va ziddiyatlarning oldini olishda, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda va jamiyat aʼzolarining ijtimoiy hayotga faol jalb qilinishida muhim rol oʻynaydi" [5, 18 b].

Ijtimoiy barqarorlik deganda jamiyatda mavjud siyosiy, iqtisodiy va madaniy institutlarning izchil ishlashi, aholining asosiy ehtiyojlari qondirilishi, fuqarolar oʻrtasida

ijtimoiy kelishuv mavjudligi va ijtimoiy adolat tamoyillari ta’minlangan holat tushuniladi. Bu barqarorlikni saqlab qolish va mustahkamlash uchun jamiyat ichidagi madaniy guruhlarning oʻzaro murosaga tayyorligi, ularning oʻzini teng his qilishi va ijtimoiy tizimga integratsiyalashuvi zarur.

Xususan, Oʻzbekiston tajribasida ham koʻp millatli jamiyat sharoitida madaniy plyuralizm tamoyillari davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. “Millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik” siyosati orqali turli madaniy qatlamlar oʻrtasidagi uygʻunlikni ta’minlash boʻyicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlodlar manfaati uchun ham zaruriy shartdir.

Shu asosda, ushbu maqolada madaniy plyuralizmning nazariy asoslari, uning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri, shuningdek, Oʻzbekiston va xorijiy davlatlar tajribasidagi amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

**Metodologiya.** Ushbu ilmiy tadqiqot madaniy plyuralizmning ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, unda sifat va qisman miqdoriy yondashuvlar uygʻunlashgan. Tadqiqot doirasida bir nechta usullar birgalikda qoʻllanildi: hujjatli tahlil, taqqoslov, kontent tahlil, hamda mavzuga oid statistik ma’lumotlardan foydalanishga urinish qilindi.

Birinchi bosqichda, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari (UNESCO, OSCE), ilgʻor xorijiy davlatlar (Kanada, AQSh, Hindiston) va Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy va qonunchilik bazasi asosida madaniy plyuralizm siyosatining asosiy mezonlari va tamoyillari oʻrganildi. Bu bosqichda ayniqsa “Multiculturalism Act” va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 va 31-moddalari asosiy tahlil obyektlari sifatida tanlandi.

Keyingi bosqichda turli mamlakatlar — AQSh, Kanada, Hindiston va Oʻzbekiston tajribasi asosida **madaniy plyuralizm va ijtimoiy barqarorlik** oʻrtasidagi bogʻliqliklar solishtirildi. Bu yondashuv plyuralizm siyosatining har xil sotsial-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitlarda qanday natijalar berganini aniqlash imkonini berdi [2, 4 b].

Uchinchi bosqichda OAV materiallari (ruxsat etilgan yangilik portallari, hukumat veb-saytlari), ta’lim resurslari (darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar), ilmiy maqolalar va ijtimoiy tarmoqlarda plyuralizmga oid mazmunlar kontent tahlil asosida oʻrganildi. Ayniqsa, rasmiy nutqlar va davlat rahbarlarining bayonotlari orqali plyuralizmga boʻlgan yondashuv va uning barqarorlik siyosatidagi oʻrni aniqlashtirildi [8,143 b].

Tadqiqotning Oʻzbekiston boʻyicha empirik asosi sifatida “Millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik” siyosati doirasida amalga oshirilgan dasturlar tahlil qilindi. Jumladan, Respublika Millatlararo munosabatlar qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar instituti va Ta’lim vazirligi hujjatlari asosida real holat oʻrganildi [9,19 b].

Tadqiqotning ba’zi cheklovlari mavjud. Xususan, statistik ma’lumotlarning yetishmasligi, ba’zi manbalarning subyektivligi va plyuralizm tamoyillarining har bir hududda turlicha qabul qilinishi natijalarning umumlashtirilishiga cheklov boʻlishi mumkin. Shu sababli, olingan natijalar holatga mos holda talqin qilinishi lozim.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, madaniy plyuralizm siyosati ijtimoiy barqarorlikning muhim tayanchlaridan biridir. Turli davlatlar tajribasi asosida tahlil qilinishi

madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar jamiyatda zo'ravonlik, ziddiyat va chetlab qo'yilish kabi salbiy hodisalarni kamaytirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kanadada 1988-yilda qabul qilingan Multiculturalism Act asosida davlat barcha madaniy-guruhlarning teng huquqli rivojlanishini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Natijada, turli millat va e'tiqod vakillari ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmoqda. Bu holat jamiyatdagi umumiy ijtimoiy ishonch darajasining yuqoriligi va siyosiy barqarorlikning mustahkamligi bilan bog'liq[4,57 b].

O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatida (130 dan ortiq etnik guruhlar) madaniy plyuralizmni boshqarish davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Parex va Taylorning nazariyalari O'zbekistonning "xalqlar do'stligi" siyosatiga mos keladi, chunki bu siyosat turli madaniyatlarning teng hurmat qilinishini targ'ib qiladi. Ushbu natijalar madaniy plyuralizmning ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun faqat tolerantlik emas, balki faol muloqot, e'tirof va inklyuziv siyosat zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda esa Konstitutsiyaning 18-moddasida millatidan, dinidan qat'i nazar barcha fuqarolarning teng huquqliligi kafolatlanadi. Bu norma amaliyotda "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik" tamoyili orqali har bir guruhning o'z madaniy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini mustahkamlaydi.[6,89 b]

AQShda turli madaniy guruhlarning erkin faoliyat yuritishi konstitutsiyaviy huquq bilan kafolatlangan. Biroq, plyuralizm siyosatining izchil emasligi ba'zi holatlarda ijtimoiy noroziliklarga olib kelmoqda. Shunga qaramasdan, federal darajada olib borilayotgan inklyuziv siyosatlar, masalan, "Affirmative Action" dasturlari orqali etnik tenglikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar barqarorlikni qo'llab-quvvatlamoqda.[7,66 b]

Hindiston tajribasi ham e'tiborga loyiq. Bu mamlakatda diniy va madaniy xilma-xillik nihoyatda keng. Konstitutsiya asosida barcha konfessiyalarga huquqiy kafolatlar berilgan bo'lsa-da, ba'zan siyosiy radikallik plyuralizm siyosatini izdan chiqaradi. Shunga qaramay, madaniy plyuralizm siyosatini davom ettirish orqali ijtimoiy muvozanat tiklanmoqda [1,19 b]

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, plyuralizmga asoslangan siyosat quyidagi ustunliklarni beradi:

- Madaniy guruhlar o'rtasida ishonch muhitini mustahkamlaydi;
- Davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni sog'lomlashtiradi;
- Migratsion jarayonlarda adaptatsiya darajasini oshiradi;
- Siyosiy ekstremizm va radikallashuv xavfini kamaytiradi;
- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. [5,31 b]

**Muhokama.** O'tkazilgan tadqiqotlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, madaniy plyuralizm siyosati faqatgina ijtimoiy totuvlikni emas, balki barqaror rivojlanishni ham ta'minlash uchun muhim omildir. Bu siyosatni izchil amalga oshirish natijasida ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi, millatlararo va dinlararo munosabatlar barqarorlashadi, jamiyat a'zolari o'zini to'laqonli fuqarolik subyekti sifatida his qiladilar.

Madaniy plyuralizm masalasi zamonaviy jamiyatda doimiy ilmiy va siyosiy bahs markazida qolmoqda. Ch.Taylor va B.Parexlar jamiyat barqarorligi uchun nafaqat huquqiy balki o'zaro hurmat va madaniyatlar o'rtasida muloqot zarurligini ta'kidlaydi.

J.Rex va V.Kimlika kabi olimlar zamonaviy jamiyatda faqat ko'pchilikni emas balki ozchilik ehtiyojlarini ham inobatga olish zarurligini aytadi.Shuningdek, xalqaro tajriba ham,

aynan ozchilikning oʻz tilida taʼlim olishi va madaniyatini rivojlantirishi huquqiga ega ekanligi jamiyat barqarorligiga ijobiy taʼsir qilishini koʻrsatmoqda.

Shu jihatdan, Oʻzbekiston sharoitida ham har bir guruh manfaatlarini hisobga olish madaniyatlararo ochiqlik va inklyuzivlikni kuchaytirish zarur. Bu esa oʻz navbatida barqaror taraqqiyot va ijtimoiy birdamlikka erishishni kafolatlaydi

Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining koʻp millatli va koʻp konfessiyali jamiyati sharoitida millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda. Bu yondashuv amaliyotda ham oʻz aksini topmoqda: barcha milliy madaniy markazlar, diasporalar faoliyat yuritmoqda, diniy erkinlik qonuniy asosda kafolatlangan.

Shu bilan birga, plyuralizm siyosatini izchil olib borishda ayrim cheklov va xavflar mavjud. Jumladan, baʼzi guruhlarning identifikatsion ajralib chiqishi, oʻzini jamiyatdan begonalashtirish holatlari, yoki plyuralizm niqobi ostida separatistik yoki radikal qarashlarning paydo boʻlishi ehtimoli inkor etib boʻlmaydi. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, plyuralizm siyosati oʻz-oʻzidan ijtimoiy barqarorlikni taʼminlamaydi. Uning samarasi koʻp jihatdan davlat institutlarining adolatli va inklyuziv siyosat yuritishiga, ommaviy axborot vositalarining beparvo emasligiga va taʼlim tizimining madaniyatlararo muloqotga ochiq boʻlishiga bogʻliq. Aks holda, plyuralizm tashqi koʻrinishda mavjud boʻlib, real ijtimoiy muammolarni yechishga xizmat qilmasligi mumkin.

Oʻzbekiston uchun dolzarb muammo shundaki, plyuralistik tamoyillarni milliy gʻoya, tarixiy xotira va umumiy maʼnaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirish zarur. “Yangi Oʻzbekiston — yangicha tafakkur” shiori doirasida bu borada ilk qadamlar tashlangan boʻlsa-da, plyuralizm siyosatini har bir hudud va har bir ijtimoiy qatlamda yanada samarali tatbiq etish uchun tahliliy yondashuv, zamonaviy metodlar va ilgʻor xorijiy tajribani chuqur oʻrganish zarur”.[1,19-25 b]

**Xulosa.** Yuqorida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni koʻrsatadiki, madaniy plyuralizm nafaqat ijtimoiy totuvlikni, balki barqaror jamiyat qurilishining asosiy kafolatlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Tadqiqotda Oʻzbekiston va qator xorijiy davlatlar tajribasi asosida madaniy plyuralizm tamoyillarining turli sotsial-madaniy kontekstlarda qanday amalga oshirilayotgani tahlil qilindi. Ayniqsa, Kanadadagi multikulturalizm siyosati, AQSh va Hindistondagi inklyuzivlik harakatlari, hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik” tamoyiliga asoslangan siyosati plyuralizmning amaliy koʻrinishlarini ochib berdi.

Madaniy plyuralizm siyosati orqali jamiyatda madaniy xilma-xillikni tan olish, hurmat qilish va qoʻllab-quvvatlash tamoyillarini kengaytirish ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, siyosiy ekstremizmni jilovlash va fuqarolik birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, plyuralizmni real ijtimoiy qadriyat sifatida singdirish uchun u faqat huquqiy yoki deklarativ darajada emas, balki taʼlim, axborot siyosati, hududiy boshqaruv va fuqarolik jamiyati institutlari orqali chuqurroq amalga oshirilishi lozim.

Oʻzbekiston sharoitida plyuralistik yondashuvni kuchaytirish milliy gʻoya va maʼnaviy yuksalish bilan uygʻunlashtirilgan holda amalga oshirilsa, bu ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim strategik yoʻnalish boʻlib xizmat qiladi. Shu boisdan, madaniy plyuralizm — bu faqat ijtimoiy boshqaruv mexanizmi emas, balki demokratik jamiyatning ajralmas gumanistik qadriyatidir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Azizxo‘jayev, A. (2020). *Madaniyatlararo muloqot asoslari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.19- 25
2. Government of Canada. (1988). *Canadian Multiculturalism Act*. Retrieved from: https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-18.7 4
3. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.
4. Kymlicka, W. (2007). *Multicultural Odysseys: Navigating the New International Politics of Diversity*. Oxford: Oxford University Press.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2022). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from: https://lex.uz/docs/7223884 18-31
6. Putnam, R. D. (2000). *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. New York: Simon & Schuster.
7. Sen, A. (2009). *The Idea of Justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Silverman, D. (2021). *Interpreting Qualitative Data* (6th ed.). London: SAGE Publications. 143
9. Strategik Tadqiqotlar Instituti. (2023). *O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosatining tahliliy ko‘rinishi*. Toshkent: STI nashriyoti. 19
10. Yin, R. K. (2014). *Case Study Research: Design and Methods* (5th ed.). Thousand Oaks, CA: SAGE Publications.
11. Ch.Taylor Multiculturalism and the Politics of Recognition. Princeton University Press.1994-37
12. B.Parekh Rethinking Multiculturalism: Cultural Diversity and Political Theory. Harvard University Press.2000-432
13. W.Kymlicka Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. Oxford University Press. 1995 - 290
14. J.Reks Ethnic Minorities in the Modern Nation State Palgrave Macmillan UK, 1996-258

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).